



Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik meros va badiiy adabiyot uyg'unligi

Sultonova O'g'ilxon Sobirjonovna –
Qo'qon davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida pedagogik meros hamda badiiy adabiyotning tarbiyaviy-didaktik uyg'unligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi metod ishlab chiqildi. Ushbu metod merosiy g'oya, obrazli tahlil, vaziyatga tatbiq, refleksiv anglash va amaliy yechim bosqichlaridan tuzilgan bo'lib, pedagogik meros va badiiy adabiyot uyg'unligiga asoslangan kasbiy qadriyatlar modeli, metodik indikatorlar, mashg'ulot tuzilmasi hamda baholash mezonlari taklif etildi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy qadriyat, pedagogik meros, badiiy adabiyot, refleksiya, kasbiy madaniyat, pedagogik obraz, ma'naviy tarbiya.

Гармонизация педагогического наследия и художественной литературы в формировании профессиональных ценностей будущих учителей

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируется воспитательно-дидактическая взаимосвязь педагогического наследия и художественной литературы в процессе формирования профессиональных ценностей у будущих учителей. В статье разработан новый метод, направленный на развитие профессиональных ценностей будущих учителей. Данный метод состоит из этапов осмысления идеи педагогического наследия, образного анализа, применения к педагогической ситуации, рефлексивного осознания и практического решения. На основе взаимосвязи педагогического наследия и художественной литературы предложены модель профессиональных ценностей, методические индикаторы, структура занятия и критерии оценивания.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональная ценность, педагогическое наследие, художественная литература, рефлексия, профессиональная культура, педагогический образ, духовное воспитание.

The integration of pedagogical heritage and fiction literature in the formation of professional values of future teachers

Annotation. This article provides a scientific analysis of the educational and didactic integration of pedagogical heritage and literary works in the process of forming professional values among future teachers. The article develops a new method aimed at enhancing the professional values of future teachers. This method consists of the stages of understanding heritage-based ideas, figurative analysis, application to pedagogical situations, reflective comprehension, and practical solution. Based on the integration of pedagogical heritage and literary works, a model of professional values, methodological indicators, lesson structure, and assessment criteria are proposed.

Keywords: future teacher, professional value, pedagogical heritage, literary works, reflection, professional culture, pedagogical image, spiritual education.

KIRISH

Ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsi bilim beruvchi mutaxassis doirasidan chiqib, tarbiyaviy muhit yaratuvchi, o'quvchining ichki imkoniyatlarini uyg'otuvchi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi ijodkor kasb egasi sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi alohida ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi. Kasbiy qadriyatlar o'qituvchining kasbga munosabati, pedagogik mas'uliyati, insonparvarlik qarashi, muloqot madaniyati, tarbiyaviy sezgirligi, adolatli baholash pozitsiyasi va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji bilan bog'liq murakkab shaxsiy sifatlar majmuasidir. "Bo'lajak o'qituvchi oliy ta'lim jarayonida pedagogik nazariyalarni o'zlashtiradi, metodik ko'nikmalarni egallaydi, dars loyihalash hamda ta'lim texnologiyalarini qo'llashga tayyorlanadi"[1]. Shu jarayonda kasbiy qadriyatlar yetarli darajada ichki ehtiyojga aylanmasa, pedagogik faoliyat texnik harakatlar yig'indisi darajasida namoyon bo'lish xavfi yuzaga keladi. Kasbiy qadriyatlar shakllangan talaba esa o'qituvchilikni ijtimoiy mas'uliyat, inson kamolotiga xizmat, ma'naviy yetakchilik, madaniy merosni avlodlarga uzatish vazifasi sifatida idrok etadi. Bunday idrok pedagogik faoliyatga mazmun, yo'nalish va axloqiy tayanch beradi. "Pedagogika tarixi fani doirasida turli tarixiy davrlarda shakllangan ta'lim-tarbiya qarashlari, buyuk mutafakkirlar merosi, maktab va madrasalar tajribasi, ustoz-shogird munosabatlari, ma'rifatparvarlik harakatlari, xalq pedagogikasi tajribalari o'rganiladi"[4]. Pedagogika tarixi materiali ayrim hollarda sanalar, nomlar, asarlar va tarixiy ma'lumotlar ketma-ketligi sifatida bayon etilishi ham mumkin. Bunday yondashuv talabaning kasbiy pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatish salohiyatini to'liq yuzaga chiqarmaydi.

Badiiy adabiyot inson ruhiyati, axloqiy tanlovi, ijtimoiy munosabati, kasbiy burchi va shaxsiy mas'uliyatini obrazlar orqali ochib beradi. Pedagogik meros nazariy g'oya, tarbiyaviy qarash va tarixiy tajribani bersa, badiiy adabiyot ushbu g'oyalarni hayotiy voqelik, xarakter, konflikt, iztirob, izlanish, tanlov, kechinma hamda xulosa shaklida anglashga yordam beradi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchi pedagogik merosni badiiy obrazlar bilan birgalikda tahlil qilganda kasbiy qadriyatlarni aqliy tushuncha, hissiy kechinma va amaliy xulq darajasida qabul qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi talaba bilimga tez kiradi, raqamli manbalardan foydalanadi, turli axborot oqimlari ta'sirida kasbiy pozitsiyasini izlaydi. Shunday sharoitda pedagogik merosning ma'naviy tayanch vazifasini kuchaytirish, badiiy adabiyotning tarbiyaviy va refleksiv imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga maqsadli kiritish muhimdir. Kasbiy qadriyatlarning pedagogik mazmunini aniqlash, pedagogik merosning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish, badiiy adabiyotning obrazli-refleksiv ta'sirini ochib berish, pedagogik meros va badiiy adabiyot integratsiyasi asosida metodik model ishlab chiqish ta'lim oldidagi

vazifalardan biridir. A.Hakimov fikricha, “aksiologik yondashuv kasbiy qadriyatlarni ta’lim jarayonining markaziy mazmuni sifatida ko’rishga yordam beradi”[3]. Toshpo’latova S. Sh “tarixiy-pedagogik yondashuv pedagogik merosdagi tarbiya, ustozlik, insonparvarlik, ma’rifat, bilim, odob va mas’uliyat g’oyalarini aniqlashga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv pedagogik meros, badiiy matn, kasbiy vaziyat va refleksiv tahlilni bir butun metodik jarayonga birlashtiradi”[6] deb aytgan. Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv talabani shaxsiy tajribasi, kasbiy niyati, hissiy munosabati hamda o’zini anglash jarayonini hisobga oladi. “Refleksiv yondashuv esa talabani o’z kasbiy pozitsiyasini tahlil qilishi, pedagogik qarorlarini asoslab berishi va axloqiy mezonlarini shakllantirishiga yo’l ochadi”[5]. Integrativ yondashuv pedagogik meros, badiiy matn, kasbiy vaziyat va refleksiv tahlilni bir butun metodik jarayonga birlashtiradi. Nazariy tahlil orqali kasbiy qadriyat, pedagogik meros, badiiy adabiyot, pedagogik obraz, refleksiya tushunchalarining o’zaro aloqasi aniqlashtirildi. Kontent-tahlil yordamida pedagogik meros va badiiy asarlarda uchraydigan kasbiy qadriyatlar mazmuni ajratiladi.

Tadqiqotning metodik yadrosi sifatida yangi MOVRA metodi taklif etildi. MOVRA atamasi besh tarkibiy qismdan tuzilgan. Meros, obraz, vaziyat, refleksiya, amal. Ushbu metod pedagogik merosdagi g’oyani badiiy obraz orqali anglash, uni real pedagogik vaziyat bilan bog’lash, shaxsiy refleksiya asosida tahlil qilish va amaliy pedagogik yechimga aylantirishga xizmat qiladi. Unda tarixiy-pedagogik bilim, badiiy-estetik idrok, kasbiy vaziyat tahlili va refleksiv-amaliy faoliyat yagona didaktik zanjirga birlashtiriladi. MOVRA metodining meros bosqichida talabalar pedagogik merosdan tanlangan g’oyani o’rganadilar. Masalan, ustoz mas’uliyati, ilmga hurmat, odob va tarbiya birligi, shogirdga mehr bilan yondashish, sabr, adolat, jamiyatga xizmat, o’z ustida ishlash singari qadriyatlar ajratiladi. Talaba ushbu g’oyani tarixiy manba, pedagogik qarash yoki mutafakkir merosi asosida tahlil qiladi. Obraz bosqichida pedagogik merosdagi g’oya badiiy adabiyotdagi obraz, voqea, xarakter yoki axloqiy tanlov bilan bog’lanadi. Talabalar badiiy matndan o’qituvchilik, tarbiya, mas’uliyat, mehr, adolat, e’tibor, fidoyilik, befarqlik, izlanish, shogird ruhiyatini tushunish singari jihatlarni ifodalovchi epizodlarni tahlil qiladilar. Badiiy obraz talabani hissiy idrokini faollashtiradi, kasbiy qadriyatni hayotiy vaziyatda ko’rishga yordam beradi. Bu bosqichda savollar mazmuni obrazning tashqi tavsifidan ko’ra ichki ma’naviy tanlovini ochishga yo’naltiriladi. Vaziyat bosqichida talabalar merosiy g’oya va badiiy obrazdan kelib chiqib real pedagogik vaziyat tuzadilar yoki berilgan vaziyatni tahlil qiladilar. Refleksiyada esa, talaba o’zining kasbiy pozitsiyasini yozma yoki og’zaki shaklda ifodalaydi. Oxirgi bosqich amalda talaba pedagogik yechim ishlab chiqadi. Yechim mikrodlar, tarbiyaviy suhbat rejasi, pedagogik muloqot ssenariysi, sinfdagi muammoli holatga javob, o’quvchi bilan individual ishlash tavsiyasi, ota-ona bilan suhbat matni yoki kasbiy kodeks bandlari shaklida taqdim etiladi. Bu bosqich kasbiy qadriyatlarni amaliy faoliyatga ko’chirishga xizmat qiladi. Talaba tarixiy g’oya va badiiy obrazdan olgan xulosasini o’z pedagogik harakatida namoyon etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Metodni qo’llash orqali olingan xulosalar jarayonida pedagogik meros va badiiy adabiyot uyg’unligi asosida kasbiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni umumlashtirildi.

1-jadval.

T/r	Jarayon qismi	Mazmuni	Talaba faoliyati	Pedagogik ta’sir
1	Merosiy g’oya	Tarixiy-pedagogik qarash, ma’rifiy fikr, ustozlik an’anasi	G’oyani izohlaydi, kasbiy mazmunini belgilaydi	Kasbga qadriyatli munosabat shakllanadi
2	Badiiy	Asardagi xarakter,	Obraz xatti-	Hissiy idrok va tarbiyaviy

	obraz	voqea, axloqiy tanlov	harakatini tahlil qiladi	sezgirlik kuchayadi
3	Kasbiy vaziyat	Zamonaviy dars yoki tarbiyaviy muammo	Pedagogik qaror ishlab chiqadi	Qadriyatli tanlov ko'nikmasi rivojlanadi
4	Refleksiya	Shaxsiy mulohaza, ichki baholash	O'z qarashini yozadi yoki himoya qiladi	Kasbiy o'zini anglash chuqurlashadi
5	Amal	Mikrodars, suhbat, kodeks, loyiha	Amaliy mahsulot yaratadi	Qadriyat harakatga aylanadi

Pedagogik meros va badiiy adabiyot birgalikda qo'llanganda talabalarda kasbiy qadriyatlar nazariy tushuncha doirasidan chiqib, shaxsiy tajriba, hissiy idrok, axloqiy tanlov va amaliy harakat mazmunida rivojlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi pedagogik ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Chunki o'qituvchilik kasbi inson bilan ishlash, shaxs kamolotiga ta'sir o'tkazish, jamiyat ma'naviy hayotida mas'ul vazifa bajarish bilan bog'liq. "O'qituvchi o'z faoliyatida har kuni axloqiy tanlov, kommunikativ muvozanat, tarbiyaviy sezgirlik, baholashdagi adolat va individual yondashuv talab etiladigan vaziyatlarga duch keladi"[2]. Bunday vaziyatlarda nazariy bilim muhim, ammo shaxsiy qadriyatga aylangan kasbiy pozitsiya yanada barqaror tayanch beradi. Pedagogik meros ushbu pozitsiyani shakllantirishda tarixiy ildiz vazifasini bajaradi. Unda xalqning ta'lim-tarbiya tajribasi, mutafakkirlar qarashlari, ustozlik odobi, ilmga hurmat, shogirdga mehr, jamiyat oldidagi burch, inson kamoloti haqidagi qarashlar mujassam. Biroq tarixiy materialni talabaning bugungi kasbiy muammolari bilan bog'lash zarur. Aks holda pedagogik meros tarixiy axborot sifatida qabul qilinishi mumkin.

Badiiy adabiyot kasbiy qadriyatlarni insoniy kechinma orqali anglash imkonini beradi. Pedagogik faoliyatda tuyg'u, mehr, e'tibor, nozik muloqot, o'quvchi holatini sezish, ichki dunyoni tushunish katta ahamiyatga ega. Badiiy obrazlar ushbu jihatlarni jonli namoyon etadi. Talaba badiiy qahramonning tanlovi, xatosi, izlanishi yoki fidoyiligini tahlil qilarkan, pedagogik vazifalarning shaxsiy va ma'naviy og'irligini his qiladi. Bu jarayon oddiy ma'lumot berishdan ko'ra chuqurroq tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. MOVRA metodi ta'lim jarayonida qo'llanganda pedagogik merosni nazariy g'oya sifatida boshlaydi, badiiy obraz orqali jonlantiradi, real vaziyat bilan bog'laydi, refleksiya orqali shaxsiylashtiradi va amaliy yechim orqali faoliyatga tatbiq etadi. Shu yo'l bilan talabaning bilimi, hissiy idroki, fikrlashi, qadriyatli tanlovi va pedagogik harakati uyg'un rivojlanadi. Guruhiy tahlil talabalarga turli qarashlarni eshitish imkonini beradi, refleksiv yozuv esa har bir talabaning ichki pozitsiyasini shakllantiradi. Pedagogik meros va badiiy adabiyot uyg'unligi bo'lajak o'qituvchining kasbiy qadriyatlarini shakllantirishda kuchli aksiologik va refleksiv manba vazifasini bajaradi. Bu uyg'unlik orqali tarixiy bilim shaxsiy qarashga, badiiy obraz kasbiy sezgirlikka, vaziyatli tahlil pedagogik qarorga, refleksiya esa ichki mas'uliyatga aylanadi. Shu jihatdan MOVRA metodi pedagogika tarixi mashg'ulotlarini qadriyatga yo'naltirilgan, hayotiy va amaliy ta'lim jarayoniga aylantirish imkonini beradi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirish pedagogik ta'limning mazmuniy va tarbiyaviy markazlaridan biridir. Kasbiy qadriyatlar o'qituvchining bilim darajasi bilan bir qatorda uning insonparvarlik pozitsiyasi, ma'naviy mas'uliyati, pedagogik adolati, muloqot madaniyati, refleksiv fikrlashi va amaliy qarorlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'limda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish maxsus metodik yondashuv, mazmunli manba va faol o'quv jarayonini talab etadi. Pedagogik meros bo'lajak o'qituvchiga kasbning tarixiy ildizlari, ma'naviy tayanchlari va jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglash imkonini beradi. Badiiy adabiyot esa ushbu g'oyalarni obraz,

kechinma, ziddiyat, tanlov va hayotiy voqelik orqali chuqur his qilishga yordam beradi. Pedagogik meros va badiiy adabiyot uyg'unligi talabaning aqliy, hissiy, axloqiy, kommunikativ va amaliy rivojlanishini birlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva I. O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish zaruriyati // Узбекистан – стратегия 2030 с точки зрения молодых ученых: экономика, политика и право. – 2023. – Vol. 1, No. 1. – P. 84–91.
2. Cronqvist M. Teachers' ethical responsibility in teaching: To guide the children about right and wrong // Scandinavian Journal of Educational Research. – 2025. – Vol. 69, No. 4. – P. 857–870.
3. Hakimov A.Q. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishda akseologik qadriyatlarning o'rni va ahamiyati // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, No. 2. – P. 1345–1349.
4. Kristjánsson K. Aristotelian practical wisdom (phronesis) as the key to professional ethics in teaching // Topoi. – 2024. – Vol. 43. – P. 1031–1042.
5. Purdy N., Hall K., Khanolainen D., Galvin C. Reframing teacher education around inclusion, equity, and social justice: Towards an authentically value-centred approach to teacher education in Europe // European Journal of Teacher Education. – 2023. – Vol. 46, No. 5. – P. 755–771.
6. Toshpo'latova S.Sh. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarlik modelini ishlab chiqish // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, No. 6. – P. 41–48.